INVESTITSION QARORLAR QABUL QILISHDA MOLIYAVIY RISK OMILLARINI HISOBGA OLISH AMALIYOTINING TAHLILI

Xamdamov O.N.
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion loyihalarning samaradorligini baholashda moliyaviy risklarni aniqlashning iqtisodiy ahamiyati va dolzarbligi asoslangan. Iqtisodchi olimlar tomonidan moliyaviy risklarni boshqarish va baholashga doir ilmiy hulosalari bayon etilgan. Korporativ tuzilmalar misolida investitsion qarorlar qabul qilishda moliyaviy risklarni baholashning amaliy jihatlari tahlil qilingan. Investitsion qarorlar qabul qilishda risk omillarini inobatga olish mexanizmini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar*: investitsiya, risk, barqarorlik, miqdoriy usullar, xedjirlash, sug‘urtalash, milliy iqtisodiyot, moliyaviy indikator, rentabellik.*

ANALYSIS OF THE PRACTICE OF CONSIDERING FINANCIAL RISK FACTORS IN INVESTMENT DECISION-MAKING

Khamdamov O.N.
Tashkent state university of economics

Annotation: *This article substantiates the economic significance and relevance of identifying financial risks in evaluating the effectiveness of investment projects within joint-stock companies. Scientific conclusions of economists regarding financial risk management and assessment are presented. The practical aspects of assessing financial risks in investment decision-making are analyzed based on corporate structures. Scientific proposals and recommendations have been developed to improve the mechanism for considering risk factors in investment decision-making.*

Key words: *investment, risk, stability, quantitative methods, hedging, insurance, national economy, financial indicators, profitability.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot Strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarning bosqichma-bosqich ijrosini ta’minlash natijasida, iqtisodiyotning barqaror, yuqori sur’atlar bilan rivojlanishi hamda o‘sishi ta’minlanmoqda. Ayniqsa, mazkur jarayonda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilganlayotganligi mazkur sohani rivojlantirish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib beradi. Xususan, korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, aksiyadorlik jamiyatlarida strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish hamda kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliya institutlari va aholining erkin resurslarini joylashtirishning muqobil manbai sifatida fond bozorini rivojlantirish masalalari alohida belgilandi. Shunday bo‘lsa-da, bugungi kunda aksariyat aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan moliyaviy menejmentning zamonaviy instrumentlari va mexanizmini joriy etish borasida qator kamchiliklar mavjud ekanligini ta’kidlash mumkin. Bu esa, bevosita aksariyat aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini past darajada saqlanib qolayotganligi va investitsion jozibadorligini ta’minlashda salbiy ta’sir etmoqda.

Qolaversa, keyingi yillarda jahon moliya bozori arxitekturasini o‘zgarib borayotganligi sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan xalqaro kapital bozoriga

chiqish masalasida tashqi risklar bilan bog‘liq omillarni har tomonlama tizimli o‘rganishni talab qiladi. Qolaversa, AQSh va Yevropa davlatlari tomonidan O‘zbekistonning asosiy savdo hamkorlariga qo‘llanilayotgan turli moliyaviy sanksiyalar mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlariga ham ma’lum ma’noda ta’sir ko‘rsatmoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan istiqbolli moliyaviy holat va barqarorlikni prognoz qilish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni oldini olish borasida aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Aytish kerakki, aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni samarali boshqarish xalqaro standartlarni joriy etish bevosita nazariy ilmiy ishlanmalar bilan chambarchas bog‘liqlikda amalga oshirilishi, mazkur yo‘nalishda tadqiqotlar olib borishning dolzarbligini namoyon etadi.

Adabiyotlar sharxi

Keyingi o‘n yillikda moliyaviy risklarni baholash bo‘yicha iqtisodchi olimlarning ilmiy yondashuvlarini tadqiq qiladigan bo‘lsak, tabiiyki yigirma yil avvalgi tadqiqotlardan aksariyat farq qiladi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Chunki aynan moliyaviy risklarni miqdoriy baholash masalasi enometrik yondashuvlar asosida rivojlanib bormoqda. Qolaversa moliyaviy risklarni prognoz qilishda katta ma’lumotlar (Big Data), sun’iy intellekt (AI) singari zamonaviy innovatsion-texnologik yondashuvlarni kirib kelayotganligi yuqoridagi so‘zimizning tasdig‘idir.

Katta ma’lumotlar va sun’iy intellekt moliyaviy risklarni aniqlashda yuqori tezlikda real vaqtli axborotni qayta ishlash, noaniqliklarni kamaytirish va xavf prognozlarining aniqligini oshirish imkoniyatini yaratadi [2]. Sun’iy intellekt tizimlari statistik modellar asosida moliyaviy tizimdagi murakkab bog‘liqliklarni aniqlashda muhim, ammo ular tizimli risklarning endogen tabiatini to‘liq tushunib yetolmaydi [3]. Katta ma’lumotlar va mashinaviy o‘rganish algoritmlari kvantil regressiya usullari bilan birgalikda portfel riskini aniqlashda dinamik va moslashuvchan prognozlarni yaratadi. Sun’iy intellekt algoritmlari esa inson xatolarni minimallashtirib, moliyaviy bozor “shok”larini prognoz qilish, portfel diversifikatsiyasi va real vaqtda risk monitoringini ta’minlash imkonini beradi [4].

Moliyaviy risk – iqtisodiy va moliyaviy faoliyat davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noaniqlik va bu noaniqlik natijasida potensial zarar yoki yo‘qotishlar ehtimoli sifatida aniqlanadi. Moliyaviy riskning asosiy turlari quyidagi hisoblanadi. Bozor riski (market risk): narxlarning bozordagi tebranishi sababli moliyaviy instrumentlarning qiymatini yo‘qotishi. Likvidlik riski (liquidity risk): aktivlarni sotish yoki majburiyatlarni bajarish jarayonida likvidlikning yetishmasligi. Kredit riski (credit risk): qarz oluvchi yoki kontragentning majburiyatlarni bajara olmaslik ehtimoli. Korxona (operatsion) riski (operational risk): ichki nazorat yoki tashqi omillar sababli biznes jarayonlarida kelib chiqadigan yo‘qotishlar. Investitsion risk (investment risk): investitsiya obyekti qiymatining kutilgan natijadan chetlanishi bilan bog‘liq zararlar [5]. So‘nggi yillarda moliyaviy bozorlarning dinamik tabiati sababli “ball asosida boshqariladigan modellar” (score-driven models) keng qo‘llanmoqda. Bu metod moliyaviy bozorlarda kuzatiladigan ekstremal voqealarni prognozlash uchun ishlatiladi va statistik parametrlarni real vaqt rejimida dinamik yangilash imkonini beradi [6].

Mamlakatimizda ham keyingi yillarda moliyaviy risklarni boshqarishning nazariy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. DSc R.X.Karlibayevaning fikriga ko‘ra, risk-menejment integrallashgan tizimining asosiy funksional vazifasi, moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida tashqi va ichki muhit ta’sirida vujudga keluvchi risklarni minimallashtirish yoki ularning salbiy ta’sirini neytrallashtirish hisoblanadi [7]. Professor O.K.Iminovning fikriga ko‘ra, “korxona moliyaviy risklari – bu uning moliyaviy faoliyati davomida foyda yoki kapitalini yo‘qotish ehtimolligidir” [8]. PhD M.Zokirjonovning fikriga ko‘ra, “Bozor riskini baholash sohasida quyidagi ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi: VaR moliyaviy instrument bozor riskini baholashning

korporativ tuzilma miqyosida yaxli tizimidir. Bundan oldin hech bir risk metrikasi risk menejment uchun riskni baholashda yaxlit tizim sifatida yechim bo‘lmagan; Xalqaro banklar faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishga oid norma va qoidalarni o‘rnatadigan Bazel qo‘mitasi 1995 yilda bozor riski bo‘yicha kapital monandligini VaRga asosan aniqlash talabini joriy etdi. Shu bilan ushbu usulga qiziqish ortdi va amaliyotda keng tarqaldi” [9]. Yuqorida olimlar tomonidan bildirilgan fikr, xulosalarga tayangan holda aytish mumkinki, moliyaviy risklarni boshqarish jarayonlarining bosh maqsadi, aniq bir loyiha bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak loyihaga doir barcha turdagi risklarni aniqlash va o‘rganish asosida mazkur risklarni bartaraf etish yoki minimallashtirish maqsadida ularni boshqarishga doir aniq chora tadbirlarni ishlab chiqish va faoliyatga tadbiq etish tushuniladi. Ta’kidlash lozimki, moliyaviy menejmentda “risk va daromadlilik” konsepsiyasida ilgari surilgan g‘oyaga muvofiq, moliyaviy faoliyat jarayonida moliyaviy risklar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarga nisbatan yuqori ustunlikka ega hisoblanadi. Shuning uchun loyiha bo‘yicha moliyaviy menejerlar asosiy e’tiborni moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda bilan bir qatorda moliyaviy risklarni boshqarishga e’tiborni qaratadilar.

Tahlil va natijalar

Korporativ tuzilmalarda investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash bilan birga ularning moliyaviy risk darajasini baholashga alohida ahamiyat qaratiladi. Umuman olganda investitsion loyihalar bo‘yicha moliyaviy risklarni baholash loyihalarni qabul qilishning dastlabki davridan boshlab loyihaning yakunlanguniga qadar bo‘lgan barcha bosqichlarda amalga oshiriladi. Albatta investitsion loyihalarda moliyaviy risklar darajasini miqdoriy baholash bo‘yicha bir qancha usullar mavjud bo‘lib, mazkur maqolamizda korrelyatsiya va regressiya koeffitsientlaridan foydalangan holda investitsion qarorlar qabul qilish amaliyotini ko‘rib chiqamiz.

1-jadval

«Baraka trade» mas’uliyati cheklangan jamiyati investitsion loyihasi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili va prognozi[1]

№	Davr (n)	Sotuv xajmi (mln. so‘ m)	Taqsimlanmagan foyda (ming so‘ m)	Xususiy kapital/ balans passivi	Pul oqimlari (ming AQSh dollar)	Diskont stavka (r) foizda	PV (ming AQSh dollar)	NPV (ming AQSh dollar)	IRR, foizda	MIRR, foizda	PI, foizda	DPP, yil
0	2024 y				-1288,48	14 %	-1288,48					4 yil 170 kun
1	2025 y	1964,8	118,5	0,33	22,28	14 %	19,54	-1268,9			0,02	
2	2026 y	2220,7	288,1	0,4	297,23	14 %	248,25	-1040,2	-51,1	-61,6	0,19	
3	2027 y	2369,3	492,8	0,51	346,37	14 %	482,05	-806,43	-23,0	-22,0	0,37	
4	2028 y	2517,9	742,3	0,64	391,64	14 %	713,93	-574,55	-6,2	-11,16	0,55	
5	2029 y	2666,5	1036,4	0,76	436,37	14 %	940,57	-349,91	4,2	5,6	0,73	
6	2030 y	2815,1	1375,4	0,87	481,11	14 %	1159,76	128,72	11,0	18,6	0,90	
7	2031 y	2963,7	1814,8	0,97	547,79	14 %	1378,67	90,19	15,8	13,5	1,07	

[1] Korxonaning sport maxsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha qabul qilingan investitsion loyiha ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Ilmiy maqolada “Baraka trade” MChJ tomonidan import kontraktiga asosan zamonaviy ishlab chiqarish dastgohlari olib kelib o‘rnatib hamda ushbu rejani to‘liq bajarish uchun 34,0 % ya’ni 6,43 mlrd. so‘m o‘z aylanma mablag‘lari hisobidan, qolgan 64,5 % ya’ni 986 965,0 AQSh dollarini tijorat bankdan 7 yil muddatga, shu jumladan, 2 yillik imtiyozli davrni o‘z ichiga olgan, yillik foiz stavkasi 5 foizga teng, umumiy miqdori 986 965,0 AQSh dollar bo‘lgan kredit liniya valyuta mablag‘larini jalb etishni rejalashtirgan. Loyiha bo‘yicha kapitalni jalb qilish qiymat umumiy diskont stavka sifatida 14% deb qabul qilingan hamda dastlabki ikki yillik davr imtiyozli davr bo‘lganligi sababli IRR alohida foiz stavkalar bo‘yicha ifodalanmagan. Loyihaning sof joriy qiymati, diskontlangan qoplash muddati va investitsiyaning ichki daromadlilik me’yori ko‘rsatkichlarini tenglamalar yordamida aniqlangan natijalarni quyidagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkin (1-jadval).

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2025-2031 yillar mobaynida korxona tomonidan maxalliy bozorga mahsulot ishlab chiqarish bilan birga eksportni yo‘lga qo‘yilishi natijasida ijobiy pul oqimlariga ega. Sof joriy qiymat hajmi boshqa samaradorlik ko‘rsatkichlariga mos ravishda beshinchi yilga kelib ijobiy saldoga ega bo‘lib, diskontlangan qoplash muddatining natijalariga asosan 4 yil 170 kundan keyin loyiha o‘zini to‘liq qoplab foydaga kirishni boshlaydi. Albatta mazkur jumladagi “foydaga kirish” deyilishi, aynan loyiha bo‘yicha qilingan barcha xarajatlar to‘liq qoplanishi nazarda tutilmoqda, yillar bo‘yicha tahlil qilganimizda esa foydaga kirish fazasi aynan 2 yilning boshiga kelib kuzatilayotganligini PI ko‘rsatkichidan ham ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, biz tomondan IRR va MIRR ko‘rsatkichlarining o‘zaro qiyosiy tahlili keltirilgan bo‘lib, aynan loyiha bo‘yicha amalga oshiriladigan reinvestisiya natijasidagi samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘zgarish tendensilarini kuzatish imkonini beradi.

Navbatdagi ekonometrik tahlil davomida «Baraka trade» mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qabul qilingan investision loyihalar iqtisodiy samaradorligini statistik monitoring usuli orqali baholaymiz. Regressiya modelini ishlab chiqishda «Baraka trade» mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2025-2031 yillarga mo‘ljallangan investision loyihalari samaradorilik ko‘rsatkichlarini aniqlashda foydalaniladigan moliyaviy ko‘rsatkichlari tanlab olingan. Investision loyihalar samaradorligini baholash mezonlarini tanlash uchun o‘zaro bog‘liq moliyaviy ko‘rsatkichlar tizimining regressiya modeli, ya’ni natijaviy atributning o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni o‘z ichiga olgan regressiya tenglamasi ishlab chiqildi. Modelning natijaviy atributlari (qaram o‘zgaruvchilar) belgisi sifatida quyidagi o‘zgaruvchilar ko‘rib chiqildi: Y_1 – oylik qoplash muddati; Y_2 – rentabellik indeksi; Y_3 – daromadlilikning ichki me’yori; Y_4 – sof joriy qiymat.

Ishlab chiqilgan modelda mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida ularga to‘liq yoki qisman ta’sir qiluvchi moliyaviy ko‘rsatkichlar tanlandi: X_1 – korxonadagi ishchilar soni; X_2 – yangitdan yaratilgan ish o‘rinlari soni, odamlar; X_3 - respublika byudjetiga to‘lovlar; X_4 – foyda summasi; X_5 – loyihaning sof joriy qiymati; X_6 – mahalliy byudjetga to‘lovlar; X_7 – yillik daromad; X_8 – ijtimoiy samara; X_9 - moliyalashtirishning umumiy miqdori; X_{10} – kapital manbalari; X_{11} – taqsimlanmagan foyda; X_{12} – asosiy kapital (vositalar)ning amortizatsiyasi; X_{13} – olingan kreditlar. “EKM-3” dasturiy ta’minotidan foydalangan holda, investision loyihalarni qoplash muddati uchun ko‘p omilli regressiya tenglamalari tuzildi va shu bilan birga multikollinearlikni bartaraf etish usuli bo‘yicha 2 ta yechim varianti olindi:

1) X_1, X_3- X_7, X_9- X_{11} bartaraf etilgan omillar;
2) X_2, X_4, X_5, X_7, X_9, X_{10}- X_{13} bartaraf etilgan omillar.

Natijada, diskontlangan qoplash muddati omillarini aniqlash uchun eng optimal model regressiya tenglamasi degan xulosaga kelish mumkin.

$$Y_1 = 3.219 * e^{0,0001X_1} * e^{-0,0086X_3} * X_6^{0,0005} \quad (1)$$

Chaddock shkalasi qiymatlari η=0,908 bilan taqqoslaganda funksional yaqin bo‘lgan yuqori bog‘liqlik mavjudligini mavjudligini ko‘rsatdi; ishonchlilik koeffisientining Styudent jadvaliga (14,625>2,310) nisbatan qiyosiy tahlili tf > tt ekanligini ko‘rsatdi; model parametrlarining ishonchlilik koeffisienti mos ravishda t_{a1}=24,197; t_{a2}=5,272; t_{a3}=6,375; t_{a6}=8,387, chunki Styudentning t me’zoni t_t=2,31 kritik qiymatidan oshib ketgan, regressiya tenglamasi koeffisientlari α=0,05 darajasida statisktik ahamiyatga ega; aproksimatsiya o‘rtacha nisbiy xatosi ε=2,17<4% - regressiya tenglamasidan indeksni prognoz qilish uchun foydalanish mumkin; Ff > Ft (4,142 > 3.310) – regressiya tenglamasi Fisher mezoni bo‘yicha α=0,05 ahamiyatlilik darajasida ishonchli bo‘lganligi sababli tadqiqotlar uchun samarali (foydali) hisoblanadi. Shuning uchun (1) modeldan investision loyihalarning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini prognoz qilishda foydalanish mumkin.

(1) model yordamida aniqlandiki, investision loyihalarni qoplash muddatiga quyidagi omillar ham ta’sir qiladi:

X_{12} – asosiy kapital (vositalar)ning amortizatsiyasi;

X_{13} – olingan kreditlar.

Modelning navbatdagi bosqichida rentabellik koeffisientini (Y_2) quyidagi omillarga bog‘liqlik regressiya tenglamasini tuzamiz.

Styudent me’zoni bo‘yicha – X_2 hamda X_1, X_3, X_4, X_5, X_7, X_9 omillar bartaraf etilgan taqdirda bizda quyidagi (2.9) model hosil bo‘ladi:

$$\tilde{Y}_2 = 3,120 * {X_6}^{0,014} * {X_8}^{0,241} * X_{10}^{-0,006} * e^{-0,066X_{11}} \quad (2)$$

Korrelyasiya koeffisienti R=0,982ga teng ekanligi, yuqori bog‘liqlikni ifodalaydi. Determinatsiya koeffisienti D = 96,44 ga teng. Ishonchlilik koeffisientining muvofiqligi t_η=61,679>2,570, regressiya tenglamasi koeffisientlarining muvofiqligi t_{a6}=85,067; t_{a8}=4,405; t_{a10}=70,256; t_{a11}=2,901. Aproksimatsiya o‘rtacha nisbiy xatosi ε=2,580<4%, Fp =15,604> 4,780 – regressiya tenglamasi Fisher mezoni bo‘yicha α=0,05 ahamiyatlilik darajasida ishonchli bo‘lganligi sababli tadqiqotlar uchun samarali (foydali) hisoblanadi.

Quyidagi jadval ma’lumotlari yordamida X_6, X_8, X_{10}, X_{11} o‘zgaruvchan omillar hamda elastiklik koeffisientlarini «Baraka trade» mas’uliyati cheklangan jamiyati investision loyihasi rentabellik indeksiga ta’sirining qiyosiy tahlil natijalarini aks ettiramiz (2-jadval). 2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, X_6 va X_{10} omillar investision loyihaning rentabellik indeksiga nisbatan yuqori ta’sir ega hisoblanadi. Darhaqiqat korxona tomonidan to‘lanadigan soliqlar ya’ni soliq yuki, amalga oshirilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki o‘rtacha 24-26% ni tashkil etmoqda. Shu bilan birga X_{10} o‘zgaruvchan haqida gapiradigan bo‘lsak, umumiy investision kapitalni tarkibiy tuzilishida qarz manbalarining ulushi yuqori ekanligi bevosita rentabellika yuqori ta’sir etuvchi omillar sifatida baholanmoqda. X_8 va X_{11} omillarning rentabellik indeksiga bog‘liqligi bo‘yicha ishlab chiqilgan navbatdagi modelni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\tilde{Y}_2 = 3,203 * 0,0415^{X_8} * 0,00007^{X_{11}} \quad (3)$$

Korrelyasiya koeffisienti R=0,982ga teng ekanligi, yuqori bog‘liqlikni ifodalaydi.

2-jadval

O‘zgaruvchan omillarning «Baraka trade» mas’uliyati cheklangan jamiyati investision loyihasi rentabellik indeksiga ta’siri[2]

№	Tenglama qiymatlarining a_j-koeffitsientlari	E_j-elastiklik koeffitsienti		β_j – beta koeffisienti		Jami	Muhimlik soni
		qiymati	qatordagi tartib raqami	qiymati	qatordagi tartib raqami		
1	a_6 = 0,01448	0,559	1	7,158	1	2	1
2	a_8 = 0,22120	0,127	3	0,352	3	6	2
3	a_{10} = -0,00425	-0,397	2	-5,728	2	4	3
4	a_{11} = - 0,04849	-0,140	4	-0,447	4	8	4

Determinatsiya koeffisienti D=96,41% ga teng. Ishonchlilik koeffisientining muvofiqligi t_η=75,332 > 2,510, regressiya tenglamasi koeffisientlarining muvofiqligi t_{a8}=5,413; t_{a11}=15,739. Aproksimatsiya o‘rtacha nisbiy xatosi ε=2,557 < 4%, Fp =22,277 > 3,340 – regressiya tenglamasi ishonchli bo‘lib, prognoz qilish tuzilgan 2.10-modeldan foydalanish mumkin degan xulosaga kelindi. Elastiklik koeffisienti va β koeffisientidan foydalanib X_8 va X_{11} omillarning rentabellik indeksiga ta’sirini tahlil qilamiz (3-jadval).

3-jadval

Foyda va xususiy kapital miqdori o‘zgarishini rentabellik indeksiga ta’siri[3]

№	Tenglama qiymatlarining a_j-koeffitsientlari	E_j-elastiklik koeffitsienti		β_j – beta koeffisienti		Jami	Muhimlik soni
		qiymati	qatordagi tartib raqami	qiymati	qatordagi tartib raqami		
1	a_8 = 0,02165	0,076	1	0,356	2	3	1-2
2	a_{11} = 0,00009	0,045	2	1,061	1	3	1-2

Yuqorida qayd o‘tib o‘tkanimizdek, modelni ishlab chiqishda foydalanilgan barcha o‘zgaruvchan omillar ham, umumiy iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri yuqori hisoblanadi. 3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, yillar davomida foyda va kapital tarkibiy tuzilishini o‘zgarishi rentabellik indeksiga ta’sir qilish bilan birga diskontlangan qoplash muddatini ham biroz uzayishiga ta’sir qilmoqda. Iqtisodiy nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak bu ikki omilni ta’siri xam ob’ektiv hisoblanib, ijro organi rahbarlari tomonidan loyihalarni istiqbolli ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda alohida yondashuvni talab qiladi.

Albatta investision loyihalarning iqtisodiy samaradorligiga yuqori ta’sir etuvchi omillar elastiklik koeffisientlari va β koeffisientlari orqali ishlab chiqilgan modellar orqali tasdiqlandi. Investision loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun ko‘p omilli regressiya modellarini qurish, loyihalarni qoplash muddati, rentabellik indeksi, daromadlilikning ichki me’yori, sof joriy qiymat, shu jumladan boshqa ta’sir etuvchi omillarning kutilayotgan qiymatlarini prognoz qilish va eng samarali investisiya loyihasini

[2] Korxonaning 2025-2031 yillarga mo‘ljallangan investitsion loyiha ma’lumotlari asosida hisoblandi.
[3] Shu yerda

nafaqat uning rivojlanish bosqichida, balki amalga oshirish bosqichida ham aniqlash imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Ta’kidlash lozimki, yuqorida tahlil ma’lumotlaridan kelib chiqqan holda «Baraka trade» ma’suliyati cheklangan jamiyati tomonidan qabul qilingan barcha samaradorlik ko‘rsatkichlari ijobiy degan xulosa shakllanmoqda. Korxona tomonidan qabul qilingan loyihalarning iqtisodiy samaradorligini monitoring qilib borishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, investision loyiahalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda xorijiy valyutada olingan kreditlarni kelgusidagi tebranish dinamikalarini kuzatib borish zarur. Ma’lumki, keyingi yillarda valyuta islohotlarini liberallashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida valyuta kurlari bozor mexanizmi asosida shakllanib bozordagi erkin talab va taklif asosida shakllanmoqda.

Ikkinchidan, iqtisodiy samaradorlikni baholashda eksport qilinaligan davlatlarning istiqbolli makroiqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini baholash kerak. Ma’lumki, keyingi yillarda xalqaro siyosiy maydonda yuz berayotgan iqtisodiy-siyosiy o‘zgarish alohida korxonalar tomonidan xalqaro tashqi omillarning milliy iqtisodiyotda ta’siri xususan eksport-import jarayonlariga ta’sirini tizimli o‘rganishni taqozo etmoqda.

Uchinchidan, korxonaning soliq yuki darajasi nisbatan yuqori ekanligidan kelib chiqqan holda istiqbolda soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan loyihalarga asosiy e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Bunda nafaqat bir turdagi loyihaga faoliyat turini moslashtirish balki ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiya qilishga ko‘proq urg‘u berish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063
2. Yousaf M., Ali S., & Hassan A. Financial risk forecasting using artificial intelligence and big data analytics: A review. International Journal of Finance & Economics, 2022, 27(4), 4245–4265. https://doi.org/10.1002/ijfe.2489
3. Danielsson J. Artificial intelligence and systemic risk. Journal of Banking & Finance, 2022, 125, 106073. https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2020.106073
4. Ghosh S. Application of Artificial Intelligence and Machine Learning in Financial Risk Management: A Review. Journal of Risk and Financial Management, 2020, 13(11), 281. https://doi.org/10.3390/jrfm13110281
5. Micha Bender, Sven Panz A general framework for categorizing financial risk. Journal of Risk, 2021, Vol. 23(3), pp. 45-72.
6. Creal D., Koopman S.J. & Lucas A. Dynamic Score-driven Models in Economics and Finance. Journal of Mathematical Psychology, 2022, 106, 102-119.
7. Karlibayeva R.X. Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy menejment tizimini samarali tashkil etish yo‘llari: diss.avtoreferati. i.f.d. – Toshkent, 2018. – 27 b.
8. Moliyaviy boshqaruv/Mualliflar jamoasi R.R.Hasanov, N.H.Haydarov, T.S.Malikov va boshq: - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009 y – 433 bet.

9. Mirzayeva F.M., Zokirjonov M.R. Qarz moliyaviy instrument riskini creditmetrics uslubiyoti yordamida baholash amaliyoti. Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 5-son.

Wookjae Heo, Abed Rabbani, John E.Grable. An Evaluation of the Effect of the COVID-19 Pandemic on the Risk Tolerance of Financial Decision Makers//Finance Research Letters, 11 November 2020, 101842. - P. 6; https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1544612320316561.